

Materialshunoslik institutida “OCHIQ ESHIKLAR KUNI” o'tkaziladi!

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Materialshunoslik instituti yirik ilmiy muassasalardan biri hisoblanadi. Mazkur muassasada Osiyo mintaqasida yagona bo'lgan “Katta Quyosh sandoni” joylashgan va bu joy turistik obyekt sifatida ham mashhur.

Joriy yil 27-may kuni soat 10:00da ushbu ilmiy muassasa faoliyati, innovatsion ishlanmalari va g'oyalari, “Katta Quyosh sandoni”ning texnologik imkoniyatlari bilan yaqindan tanishtirish maqsadida keng jamoatchilik uchun “Ochiq eshiklar kuni” tashkil qilinmoqda.

Eslatma: 27-may kuni soat 8:30da O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Prezidiumi binosi (Toshkent shahri, Ya.G'ulomov ko'ch. 70-uy) avtobusda yo'lga chiqiladi.